CHAQIRIQQACHA HARBIY TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINING DIDAKTIK KOMPETENTLIGINI RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI

Bozorov Aziz Abloqulovich,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Harbiy ta’lim fakulteti boshlig‘i, dotsent
bozorov26041980@gmail.com

Zamonaviy jahon darajasi shundayki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari takomillashuvi, raqamli ta’lim mamlakatda jahon axborot makonining infratuzilmalari va milliy axborot-hisoblash bo‘g‘ini integratsiyasiga mos keladigan milliy tizimni yaratish milliy iqtisodiyot, nazorat qilish, fan va ta’lim samaradorligining muhim asosi bo‘lmoqda. Bu muammolar ancha murakkab va ayni paytda mamlakatimiz uchun dolzarbdir. Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarida didaktik kompetentligini raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak yosh kadrlarni zamonaviy bilimlar bilan boyitish, ta’lim jarayonida amaliy va nazariy mashg‘ulotlarni yangi pedagogik texnologiya asosida olib borish, harbiy iqtisodiy, tuzilmaviy va boshqa o‘zgarishlarni amalga oshirish natijalari respublikada axborotlashtirish bilan bog‘liq muammolarning qanday va qaysi muddatlarda hal etishga ham bog‘liqligi juda katta ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, didaktika, harbiy ta’lim, raqamli ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari**,** bilim, ta’lim, ko‘nikma, faoliyat, kasbiy mahorat, malaka, tahsil oluvchi, dastur.*

УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ДИДАКТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ ПО ПРОГРАММЕ ДОПРИЗЫВНОЙ ВОЕННОЙ ПОДГОТОВКИ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

В современных глобальных условиях развитие информационно-коммуникационных технологий и цифрового образования – в частности, создание национальной системы, интегрирующей информационно-вычислительную инфраструктуру страны с мировым информационным пространством, – становятся важнейшими факторами эффективности национальной экономики, системы государственного управления, науки и образования. Эти вопросы отличаются высокой сложностью и в то же время имеют для нашей страны первостепенное значение. Важнейшее значение имеет тот факт, что развитие дидактической компетентности у студентов, специализирующихся на допризывной военной подготовке, – процесс, включающий обогащение будущих молодых специалистов современными знаниями в цифровой образовательной среде, проведение практических и теоретических занятий на основе новых педагогических технологий, а также реализацию военно-экономических и структурных преобразований, – также зависит от того, как и в какие сроки республика решает вопросы информатизации.

Ключевые слова: *компетентность, дидактика, военное образование, цифровое образование, информационно-коммуникационные технологии, знания, образование, умение, деятельность, профессиональное мастерство, квалификация, обучающийся, программа.*

CONDITIONS FOR DEVELOPING THE DIDACTIC COMPETENCE OF PRE-CONSCRIPTION MILITARY TRAINING STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

In the current global landscape, the advancement of information and communication technologies and the development of digital education – specifically, the creation of a national system that integrates the country's national information-computing infrastructure with the global information space – are becoming vital foundations for the efficiency of the national economy, governance, science, and education. These issues are highly complex and, at the same time, of pressing importance for our country. It is of great importance that the development of didactic competence among students specializing in pre-conscription military training – encompassing the enrichment of future young professionals with modern knowledge within a digital educational environment, the conduct of practical and theoretical classes based on new pedagogical technologies, and the implementation of military-economic and structural changes – is also contingent upon how and within what timeframes the republic resolves issues related to informatization.

Key words: *competence, didactics, military education, digital education, information and communication technologies, knowledge, education, skill, activity, professional mastery, qualification, learner, program.*

Kirish. Fanlar bo‘yicha elektron o‘quv vositalarining yaratilishi Chaqiriqqacha harbiy ta’lim fanlarini o‘qitishda raqamli ta’lim muhitida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini tobora kengaytiradi. Bu esa, o‘z navbatida, talabalarning mazkur fanlar bo‘yicha bilimlarini chuqur o‘zlashtirishlarining asosi bo‘lib, ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi. Ayni shunday sa’y-harakatlar amalga oshirilishi ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tadbiq etishni yanada rivojlantiradi, tinglovchilarni ilg‘or pedagogik bilimlar va texnologiyalar bilan qurollantirish, ularning mahoratini oshirish, xorijiy oliy ta’lim muassasalari tajribasini chuqur o‘rganish hamda ulardagi samarali usul va vositalarni milliy ta’lim tizimimizga joriy etish imkonini paydo qiladi[1].

Texnologiyaning rivojlanishi bilan texnik vositalardan foydalanib o‘qitish uchun yagona kompyuterning mavjudligi kifoya bo‘ldi. Avvallari televizor, videomagnitofon, kinoproektor, diaproektor va boshqalar bajargan funksiyalarni kompyuter muvaffaqiyat bilan o‘z ichiga oldi. Qolaversa, axborotni uzatish, saqlash, tasvirlash sifati ma’lum darajada ko‘tarildi. Hozirgi kunga kelib, kompyuter savodxonligi madaniyatning muhim belgisiga aylandi, kelajakda esa u har bir shaxsga qayerda, qaysi obyektda ishlamasin zaruratga aylanadi [2]. Demak, kompyuter ishi, kompyuterdan foydalanishga o‘rgatish eng yaqin vaqt ichida umumiy ishga aylanishi mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyalarining vositalari qatoriga: kompyuter, skaner, videoko‘z, videokamera, LCD proektor, interaktiv elektron doska, faks modem, telefon, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet va Internet tarmoqalari, mobil aloqa tizimlari, ma’lumotlar omborini boshqarish tizimlari, sun’iy intelekt tizimlarini kiritsa bo‘ladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Ma’lum bir fan yoki fanlarga doir amaliy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish zaruriyati paydo bo‘lganda amaliy yo‘naltirilgan loyihalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Eng oddiy holda, o‘qituvchi talabalardan fanga doir tarqatma materiallar yoki o‘yinlar ssenariysi, glossariy, tarixiy asarlar yaratish topshirig‘ini buyurishi mumkin. Amaliy yo‘naltirilgan loyihalar bilan ishlash jarayonida talabalarda nafaqat fanga doir bilim, ko‘nikma va malakalar rivojlanibgina qolmay, balki faoliyatga doir kompetentlik ham qaror topadi. O‘quv loyihasida eng katta e’tibor talabalarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratiladi. Aynan ijodiy loyiha talabalarga o‘zini namoyon eta olish, istalgan janrdagi asarni yaratish imkonini beradi [3].

Tobora rivojlanib borayotgan raqamli ta’lim muhitida “Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo‘nalishi talabalarida milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish, tariximiz va madaniyatimiz, Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish umumpedagogik, didaktik hamda psixologik xususiyatlarga ega bo‘lib, bu xususiyatlarni turli ta’lim shakllari: auditoriya, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar, turli tarbiyaviy tadbirlar orqali amalga oshirishda sohaga doir adabiyotlardan foydalanish dolzarb hisoblanadi. Buning uchun “Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan pedagog o‘quv mashg‘ulotida optimal ravishda raqamli ta’lim muhitida axborot texnologiyalarini keng tadbiq etish, uni to‘g‘ri tashkil eta olishi talab etiladi. Axborot texnologiyasi vositalari muayyan amallarni ongli va rejali amalga oshirishda o‘zlashtiriladi. Bu jarayon quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- kompyuter, shuningdek, printer, modem, mikrofon va ovoz eshittirish qurilmasi, skaner, raqamli videokamera, multimedia proyektori, chizish plansheti, musiqali klaviatura shu kabilar hamda ularning dasturiy ta’minoti;
- uskunaviy dasturiy ta’minot;
- virtual matn konstruktorlari, multiplikatsiyalar, musiqalar, fizik modellar, geografik xaritalar, ekran prosessorlari va hokazolar;
- axborotlar majmuyi – ma’lumotnomalar, ensiklopediyalar, virtual muzeylar va boshqalar;
- texnik ko‘nikmalar trenajorlari (tugmachalar majmuyidan tugmachalarga qaramasdan axborot kiritish, dasturiy vositalarni boshlang‘ich o‘zlashtirish).

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarining didaktik kompetentligini raqamli ta’lim muhiti sharoitida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari va shart-sharoitlarini aniqlash tashkil etadi. Tadqiqotda didaktik kompetentlik bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchisining ta’lim jarayonini loyihalash, tashkil etish, boshqarish, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish hamda ta’lim natijalarini baholashga oid bilim, ko‘nikma, malaka va kasbiy tajribalarining integrativ majmuyi sifatida talqin qilinadi [9].

Tadqiqotning metodologik yondashuvlari sifatida tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga yo‘naltirilgan va raqamli texnologik yondashuvlar uyg‘unligidan foydalanildi. Tizimli yondashuv asosida talabalarning didaktik kompetentligini rivojlantirish jarayoni o‘zaro bog‘liq bo‘lgan maqsad, mazmun, metod, vosita va natijalar tizimi sifatida ko‘rib chiqiladi. Kompetensiyaviy yondashuv esa talabalarda nazariy bilim bilan bir qatorda ularni amaliy pedagogik faoliyatda qo‘llash qobiliyatini shakllantirishga yo‘naltiriladi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv orqali talabalarning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va ta’lim ehtiyojlarini hisobga olishga e’tibor qaratiladi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv talabalarning mustaqil, amaliy va interfaol faoliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda nazariy, empirik va statistik tadqiqot metodlari majmuasidan foydalaniladi. Nazariy metodlar sifatida pedagogika, oliy ta’lim, harbiy pedagogika, raqamli ta’lim va kompetensiyaviy yondashuvga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish va modellashtirish usullaridan foydalaniladi. Empirik metodlar sifatida pedagogik kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma, test, ekspert baholash, talabalarning amaliy topshiriqlarini tahlil qilish hamda pedagogik tajriba-sinov ishlari qo‘llaniladi [10].

“Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo‘nalishi talabalarining o‘quv faoliyatini loyihalash bosqichlari quyidagicha tashkil etilsa,samarali natijalarni beradi:

-birinchidan, taqsimot yo‘nalishi – o‘quv mashg‘uloti vazifalarni oqilona belgilash;

-ikkinchidan, maqsad va vazifalarni belgilash – o‘quv mashg‘ulotidan ko‘zlangan istiqboliy rejalarini aniqlash;

-uchinchidan, teskari aloqani o‘rnatish – o‘quv mashg‘uloti maqsadlariga erishish shakllari va yo‘llarini tahlil qilish;

-to‘rtinchidan, yaratuvchanlik yo‘nalishi – mashg‘ulotning idrok qilish muhitida o‘quv maqsadlarining amalga oshirilishini ta'minlash;

-beshinchidan, pedagogik tajribani o‘rganish va umumlashtirish;

-oltinchidan, – motivatsiya va rag‘batlantirish yo‘nalishi – talabalarning hamda o‘qituvchilarning ta’lim olish va ta’lim berish faoliyatini rag‘batlantirish, tashqi stimullarni adekvat qabul qilish;

-yettinchidan, nazorat yo‘nalishi – ta’limiy-tarbiyaviy jarayonda turli xil nazorat turlarini o‘tkazishni nazarda tutadi, ma'naviy-ma'rifiy jarayon holati to‘g‘risidagi axborotga ega bo‘lishni bildiradi.

Ta’limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi:

- o‘quv fan sohalarini axborotlashtirishni;
- o‘quv faoliyatni intellektuallashtirishni;
- integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni;
- ta’lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish yo‘llarini takomillashtirishga olib keladi[11].

Olingan natijalar va ularning tahlili. “Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo‘nalishi o‘quvchilarning analitik, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, idrok etishning mantiqiy usullarini o‘zlashtirish va katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash maqsad qilib qo‘yilsa, tadqiqotchilikka doir o‘quv loyihasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Mazkur o‘quv loyihasining maqsadi loyiha farazini asoslab berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tajriba-sinov ishlari o‘tkazish, olingan natijalarni tahlil etish, umumlashtirish, taqqoslash, rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash, bundan tashqari xulosalar chiqarish, o‘z nuqtai nazarini asoslash zarur. Ana shu tarzda tadqiqotchilikka doir o‘quv loyihasida asosiy e’tibor fikriy kompetentlikni rivojlantirishga qaratiladi [4].

Pedagogik ta’lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish:

- masofaviy o‘quv kurslarini va elektron adabiyotlarni tayyorlovchi jamoaga pedagoglar, kompyuter dasturchilar, tegishli ustalarning birlashuvini;
- pedagoglar o‘rtasida vazifalarning taqsimlanishini;
- ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini monitoring etishni talab etadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim jarayonlariga joriy etilishi:

- talabaga kasbiy bilimlarni bilib olishiga;
- o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o‘zlashtirilishiga;
- o‘quv faoliyatining xilma-xil tashkillashi hisobiga talabaning mustaqil faoliyati yo‘nalishining kengayishiga;
- interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o‘qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga;
- sun’iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabaning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish pozitsiyasini egallashiga;
- axborot jamiyati a’zosi sifatida unda axborot madaniyatining takomillashuviga;

- o‘rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, talabalarda o‘quv fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita sanaladi. Ular ta’lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o‘qitish vositasi ko‘rinishida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o‘quv fani yuzasidan aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta’minot, kuchaytirilgan yordamchi vositalar kiradi [4].

Virtual borliq (Virtualnaya realnost) tushunchasini Jaron Lanier (Lan’e) taklif bergan. Virtual borliq immersivlik va interfaollik tushunchalari bilan bog‘langan. Immersivlik deganda insonning virtual borliqda o‘zini faraz qilishini tushunish mumkin. Interfaollik foydalanuvchi real vaqtda virtual borliqdagi obyektlar bilan o‘zaro muloqotda bo‘lib ularga ta’sir ko‘rsatishga ega bo‘ladi. Virtual borliq tizimi deganda – biz imitatsion dasturiy va texnik vositalarni bilamiz. Interfaollikni ta’minlash uchun, virtual tizim boshqaruvchi amallarni qabul qilinadi. Bu amallar ko‘pmodallikga, ya’ni ko‘z yordamida ko‘radigan, tovush bilan qabul qiladigan bo‘lishi kerak. Bu amallarni amaliyotda bajarish uchun zamonaviy tizimlarda turli tovush va videotexnologiyalardan foydalanib kelinadi. Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning an’anaviy vositalardan ustunligini tasdiqlovchi qator ijobiy omillar bor. Mazkur omillar didaktik, psixologik, iqtisodiy, fiziologik guruhlarga bo‘linadi. Pedagogik dasturiy vositalarga qo‘yiladigan didaktik talablarga quyidagilar kiradi: ilmiylik, tushunarli, qat’iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda (pedagogika, psixologiya, informatika, ergonomikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning fundamental asoslarini hisobga olib, o‘quv faoliyati mazmunini tiklash imkoniyatini ta’minlash), uzluksizlik va yaxlitlik (oldin o‘rganilgan bilimlarning mantiqiy oqibati hamda to‘ldiruvchisi sanaladi), izchillik, muammolilik, ko‘rgazmalilik, faollashtirish (o‘qitish mustaqilligi hamda faollilik xususiyatining mavjudligi), o‘qitish natijalarini o‘zlashtirish mustahkamliligi, muloqotning interfaolliligi, o‘qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning umumiy yaxlit birligi [4].

Fanlardan yaratiladigan pedagogik dasturiy vositalar quyidagi metodik talablarga javob berishi lozim:

1. Pedagogik dasturiy vositalar – o‘quv materialini taqdim etishning tushunchali, obrazli va harakatli komponentlarining o‘zaro bog‘liqligiga tayangan holatda qurilishi.

2. Pedagogik dasturiy vositalar o‘quv materialini yuqori tartibli tuzilma ko‘rinishida ta’minlashi. Fanlararo mantiqiy o‘zaro bog‘langanlikning hisobga olinganligi.

3. Pedagogik dasturiy vositalarda ta’lim oluvchiga o‘quv materialini bosqichma-bosqich o‘zlashtirganligini har xildagi nazoratlarni amalga oshirish asosida aniqlab bilish imkoniyatlarining yaratilishi.

Muhokama. Ta’limni algoritmlashtirish – ta’limiy masalalarni yechish yo‘llarini aniqlash va ularni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilish algoritmini ishlab chiqish. Ayni shu ma’noda algoritmlashtirish o‘quv materialining tarkibi, o‘quvchi faoliyatining tartibi hamda ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning didaktik tamoyili sanaladi. Videokompyuterli o‘qitish texnologiyasi - talabalarning faol bilish, bilim orttirish jarayonlarini rag‘batlantiruvchi texnologiyadir.

Ma’lumki, hozirgi vaqtda mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ta’lim sohasiga katta ahamiyat berilib, bir qator qarorlar imzolangan. Qarorlar ijrosini ta’minlashning negizida albatta ma’lum fanni talabachilarga ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanib o‘rgatish yotadi. Mazkur yo‘nalishda bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu texnologiya o‘quv axborotlarining verbal va tasavvurli shakllarini birgalikda namoyon qilish, o‘qitish jarayonini maqsadlarga moslashtirish imkoni yaratiladi. Talabalar kompyuter bilan individual o‘qitilganda darslarda kommunikativ faoliyat ko‘rsatolmaydi, bundan tashqari, muammoli o‘qitish zamiridagi evristik aspekt yo‘qqa chiqishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa. Darhaqiqat, raqamli ta’lim muhitida har qanday loyihalash, o‘qitishning ilmiy asoslangan vositalari bo‘lgani holatda uning texnologikligi hisoblanmaydi. Loyihalash metodologik vazifasi bajaradi. U talabaning psixik rivojlanish qonuniyatlari, o‘quv jarayonining rivojlanish xususiyatlari va pedagogik boshqaruv usullarining tadqiqot vositasi sifatida maydonga ko‘tariladi. Oliy o‘quv yurtida ta’limni takomillashtirish maqsadida pedagogik muloqotning yangi shakllari, axborotlarning tarkibiy qismlarini qayta ishlab chiqish, o‘quv faoliyatini boshqarishning yangi shakllari talab qilinadi. Texnologik taraqqiyot bugungi kunda ijtimoiy jarayonlarni kuzatib borishga ega eng muhim komponentlardan biridir. Pedagogik ta’lim texnologiyasini yaxshilash jamiyat madaniy saviyasini va uning iqtisodiy kuchini shakllantirish shartidir.

O‘qitish texnologiyasi ta’limning faoliyatini ta’min etadi, bilimlarni mehnat jarayoniga tatbiq etishni joriy etadi, pedagogning ongliligini qolipga tushiradi, uning jadal harakat qilishiga va hayot yo‘liga ta’sir ko‘rsatadi. Kasbiy o‘qitish texnologiyasi shaxsni intizom, iroda va ixtisoslikka bo‘lgan qiziqishni yuzaga

keltiradi. Mutaxassisga bo‘lgan har tomonlama talabni qanoatlantirishga qaratilgan raqamli ta’lim muhitida ta’lim texnologiyalari pedagog va talabaning hamkorligiga tezlikda moslangan psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirishga yo‘naltiradi.

Adabiyotlar:

1. Xo‘jayev B.X., Tursunov Sh.Q. Harbiy ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Harbiy-texnik institut, 2021. – 288 b.
2. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2020. – 180 b.
3. Begimqulov D.Sh., Baykabilov U.A. Elektron ta’lim resurslari: yaratish texnologiyalari va metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 232 b.
4. Raximov F.B. Harbiy psixologiya va pedagogika asoslari. Darslik.-B.; Umid, 2022.-151 b.
5. Abduqodirov A.S., Ahmedov G‘. Harbiy xizmat axloqi. Qo‘llanma, Sharq nashriyoti, Toshkent 2007. – 228 b.
6. Nasriddinov Ch.R. Harbiy psixologiya. O‘quv qo‘llanma T.; Fan, 2004.-123 b.
7. Satib-Aldiyev A., Karimjonov A. “Harbiy pedagogika” nashriyoti, TDPU Toshkent 2005. – 215 b.
8. Begimqulov D.Sh. Zamonaviy axborot texnologiyalarini ta’limga joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2019. – 224 b.
9. Xo‘jayev B.X., Ro‘ziyev R.A. Harbiy pedagogika va psixologiya asoslari. – Toshkent: Harbiy-texnik institut nashriyoti, 2020. – 312 b.
10. Begimqulov D.Sh., Mamatqulov R.X. Ta’lim jarayonlarini axborotlashtirish va raqamlashtirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 256 b.